

**AT "Aloqabank" Surxondaryo hududiy kompleks xizmatlar ko'rsatish markazida
xodimlar ishtirokida o'tkazilgan yig'ilish**

B A Y O N I

Termiz shahri

2026-yil 30-aprel

Raislik qiluvchi:

AT "Aloqabank" Surxondaryo HKXKM
direktori F.Kodirov

Ishtirok etdilar:

Markaz xodimlari

**O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik
tizimi**

AT "Aloqabank" Surxondaryo HKXKM direktori F.Kodirov yig'ilishni ochiq deb e'lon qilib, xodimlarni O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik tizimi bilan tanishtirish uchun so'zni Yuridik xizmat sho'basini boshlig'i N.Toshqo'lovga berdi.

N.Toshqo'lov O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik tizimi bo'yicha quyidagi mazmunda ma'ruza qildi.

O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Buni so'nggi yillarda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan ma'muriy islohotlar misolida mazkur sohada qabul qilingan konseptual me'yoriy hujjatlar asosida baholash mumkin. Mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashning samarali mexanizmi, jumladan, huquqiy baza va institutsional asos yaratilgan. Davlat va jamiyat qurilishining barcha tarmoqlarida korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan 70 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjatlar mazkur islohotlarni amalga oshirishda mustahkam asos bo'ldi.

Albatta, 2017-yilda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi qonun O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy huquqiy asosi hisoblanadi. Qonun davlat xizmatchilaridan bevosita yoki bilvosita ishtirok etishi mumkin bo'lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida o'z rahbarlariga ma'lum qilishni talab qiladi va korporativ ma'lumot beruvchilarni himoya qilishga qaratilgan. Bundan tashqari, qonun ommaviy axborot vositalariga davlat organlaridan korrupsiyaga oid jinoyatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni so'rash huquqini beradi. Shuningdek, qonunda vazirliklar va boshqa davlat organlari tomonidan ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning korrupsiya uchun yangi imkoniyatlar yaratmasligini ta'minlash maqsadida ekspertizadan o'tkazish majburiy tartibda belgilandi.

Davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlar www.d.xarid.uz saytida joylashtiriladi. Ochiq ma'lumotlar portali (data.gov.uz), yuridik shaxslar va tijorat tashkilotlarining ro'yxatga olingan ma'lumotlar bazasi (my.gov.uz) va boshqa platformalar bugungi kunda ochiqlik va oshkorlik, jamoatchilik nazorati tamoyillarini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda, bular korrupsiyaga qarshi kurashish va oldini olishning eng samarali vositalaridir. Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillari ham tubdan takomillashtirildi, bu esa tadbirkorlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash, ortiqcha byurokratik to'siqlar va eskirgan me'yoriy hujjatlarni bartaraf etish imkonini berdi.

O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida Qarori qabul qilinib «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilingan bo'lib mazkur O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga

qarshi kurashish to'g'risida Qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2016 yil 24 noyabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2016 yil 13 dekabrda ma'qullangan.

Qonunning **1-bobi 1-moddasida** Umumiy qoidalar, **2-moddasida** Qonunning maqsadi, **3-moddasida** asosiy tushunchalari ya'ni:

korrupsiya — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik — korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

manfaatlar to'qnashuvi — shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat.

4-moddasida Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari belgilangan va mazkur Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- qonuniylik;
- fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;
- ochiqlik va shaffoflik;
- tizimlilik;
- davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi;
- korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi;
- javobgarlikning muqarrarligi.

Qonunning 5-moddasida Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilangan bo'lib bu yerda Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iboratligi ko'rsatilgan ya'ni:

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlashdan iboratdir.

Qonunning 6-moddasida Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosati davlat dasturlari va boshqa dasturlar asosida amalga oshirilishi mumkinligi belgilangan.

Shuningdek, mazkur Qonunning 2-bobida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlar komlari, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni qonun hujjatlariga muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshirishi, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoralararo komissiyalar tashkil etilishi. Idoralararo komissiyani shakllantirish va uning faoliyati tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanishlari ko'rsatib o'tilgan.

Qonunning 9-moddasida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari, 10-moddasida O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari, Qonunning 11-moddasida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari, 12-moddasida esa O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari, 13-moddasida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi

huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamentining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari, 14-modda. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishi va 15-moddasida Ommaviy axborot vositalarining korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishi belgilangan va vazifalar yuklatilgan.

O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (UNCAC) hamda IHTT ning Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo uchun Korrupsiyaga qarshi kurash tarmog'i (KQT) doirasidagi asosiy submintaqaviy tashabbus bo'lgan Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Istanbul harakat rejasining a'zosi hisoblanadi. O'zbekiston yaqinda Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha huquqni muhofaza qilish organlarining Global operativ tarmog'iga a'zo bo'ldi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda har bir me'yoriy-huquqiy hujjat "korrupsiyadan holi qonunchilik" tamoyili asosida ishlab chiqilib, korrupsiyaga qarshi kurashish amaliyotida tizimli profilaktika chora-tadbirlari kuchaytirilib, fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorlik mexanizmlarini yaratish orqali jamoatchilik nazorati ta'minlanmoqda.

Qayd etilgan va boshqa chora-tadbirlar mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashni yaxshilashga xizmat qildi. Buni mamlakatimizning xalqaro reytinglardagi o'rni yaxshilangani ham tasdiqlaydi. Xalqaro boshqaruv ko'rsatkichlariga ko'ra, O'zbekiston so'nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashni yaxshilagan. So'nggi yillarda mamlakatimiz Transparency International's Corruption Perceptions Index (CPI) reytingida o'z o'rnini 42 pog'onaga yaxshilagan. Birgina 2023-yilning o'zida mamlakat o'z reytingini 5 pog'onaga yaxshiladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali moliyaviy, huquqiy va institutsional mexanizmlarini yaratish yo'li o'z samarasini berdi desak bo'ladi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, korrupsiyaga qarshi kurash faqat bir necha yillik vazifa emas. Bu to'xtovsiz jarayondir va O'zbekiston hukumati bu boradagi xalqaro standartlarga muvofiq korrupsiyaga qarshi islohotlarning muvaffaqiyatini ta'minlash bo'yicha yangi qadamlarni qo'yishga intilmoqda.

Yig'ilish ishtirokchilar tomonidan savollar va takliflar bildirildi. Berilgan savollarning barchasiga javoblar va tavsiyalar berildi.

Yig'ilishda qatnashgan bank xodimlari o'z faoliyatlarida poraxo'rlik, ta'magirlik kabi holatlarga yo'l qo'yilmasliklari kerakligi haqida ta'kidlab o'tilib,

QAROR QILINDI:

1. AT "Aloqabank" Surxondaryo hududiy kompleks xizmatlar ko'rsatish markazi Yuridik xizmat sho'basini boshlig'i N.Toshqulovning "O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik tizimi" to'g'risidagi ma'ruzasi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. AT "Aloqabank" Surxondaryo hududiy kompleks xizmatlar ko'rsatish markazining barcha xodimlaridan:

- o'z ish faoliyatlarida qonunchilik hujjatlariga, bank ichki me'yoriy hujjatlariga va lavozim yo'riqnomalariga qat'iy rioya etish;

- korrupsiyaviy holatlarning har qanday turiga yo'l qo'yilmaslik, ta'magirlik va poraxo'rlikka qarshi keskin kurash olib borish, salbiy illatlarga batamom chek qo'yish;

- tadbirkorlar va omonatchilarga bank xizmati ko'rsatish saviyasini keskin oshirish, ularning qonuniy talab va istaklarini amalga oshirish yo'lida barcha zarur chora-tadbirlarni ko'rish;

- Markaz tuzilmalari rahbarlari va barcha xodimlar tomonidan mazkur yig'ilish bayonnomasi talablarining so'zsiz bajarilishi ustidan doimiy va samarali nazorat o'rnatish.

